

BUGUNGI KUNDA GENDER DESKIRMENATSIYAGA SABAB BO'LAYOTGAN OMILLAR VA ULARNING YECHIMLARI (YO'LLARI)

Berdiyeva Sevara Bayanqul qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va Adabiyoti Universiteti
talabasi. sberdiyeva85@gmail.com +998937830919*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “ayol” va “erkak” tengligi, ya'ni gender tenglik borasida olib borilayotgan tadbqiqot va tashviqotlar, shuningdek, kasb-hunarlar taqsimotida “ayol” va “erkak”ga nisbatan stereotiplarning hozir ham ba'zi jamoa, hududlarda saqlanib, bunday stereotiplarga qadriyat deb qarayotgani, tarixan bizga yot bo'lib singdirilib kelayotgan qadriyatlarni xalq og'zaki ijodi hisoblangan maqollarda ham kuzatishimiz mumkinligi, bunday muammolarga yechim uchun olib borilayotgan ishlarni to'g'ri taqsimot asosida targ'ib qilish va ularga yechim berib milliylikni o'zlikni unutmagan holda o'zgartirish kiritish kerakligi keltirilgan. Shu jumladan, bugungi kunda jamiyatimizning eng kichik bo'g'inlari hisoblanmish – oilalardan boshlanishi kerak bo'lgan feministik qarashlar sustligi va gender tengligi, ya'ni gender adolatni taminlashda yo'lga qo'yilayotgan kichik kamchiliklar, butun jamiyat muammosiga aylanib ulgurgani haqida yoritilib, ularga adikvat yechimlar keltirib o'tilgan. Ta'lim muassasalarida ham kuzatilayotgan stereotiplarni e'tibordan chetda qolayotgani va ularni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida olib borilishi kerak bo'lgan ishlar yoritilgan.*

Kalit so'z: *Gender adolat, feministik harakat, gender stereotiplar, gender deskirmenatsiya, gender yondashuv*

Annotation: *in this article, the equality of “woman” and “man”, that is, the gene is the study and propaganda of equality, as well as the fact that stereotypes about “woman” and “man” in the distribution of professions are still maintained in certain communities, regions and view such stereotypes as value, that historically we can also observe values that are, it has been cited that the work being carried out for a solution to such problems should be promoted on the basis of proper distribution and that by giving them a solution it is necessary to change nationalism without forgetting identity. Including the fact that today the smallest bugins of our society are considered – the slowness of feminist views, which should begin with families, and the equality of the gene, that is, the small shortcomings that are being established in ensuring the Justice of the gene, have become the problem of society as a whole, and adequate solutions have been brought to them. It is also covered by the neglect of the stereotypes observed in educational institutions and the work that should be carried out in order to get them right.*

Keyword: *gene is justice, feminist movement, gene is stereotypes, gene deskirmenation, gender approach*

Bugungi kunda jamiyatimizda gender tenglikka alohida e'tibor qaritilmoqda. Ayol va erkakning teng huquqliligi, ular qaysi jins vakili bo'lmasin erkinligiga ega bo'lishi kerak kabi fikrlar ilgari surilmoqda.

Gender tengligi o'zi nima? Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i: erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

40

Gender tenglikni tizimlashtirish borasida ishlar olib borilmoqda, “ayol” va “erkak”larning huquqiy manfaatlarini himoya qiluvchi qonunlar ishlab chiqilgan, shuningdek, gender diskriminatsiyaga qarshi kurashish chora tadbirlari olib borilmoqda. Ammo ayrim hudud a'zolari va jamoalarda ayollarga nisbatan qotib qolgan stereotiplar, shu bilan birga hozirda illat deb qaralayotgan qadriyatlarining mavjudligi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi.

Gender diskriminatsiyaga sabab bo'layotgan omillar :

1. Ayol va erkaklarga nisbatan qotib qolgan stereotiplar;
2. Ba'zi stereotiplar qadriyat deb qaralishi;
3. Kasb hunarda, maosh taqsimotida jinsga ajratish;

Ijtimoiy psixologiyada stereotip atamasi ma'lum bir toifadagi odamlarga nisbatan haddan tashqari umumlashtirilgan e'tiqod sifatida ta'riflanadi.⁴¹ Stereotiplar noto'g'ri qarashlarni rag'batlantiradi va bir qancha sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin.⁴²

Stereotiplar oiladan boshlanadi. Oilada farzandga nisbatan ota-ona tarafidan noto'g'ri qo'yiladigan cheklovlar. Masalan: O'g'il farzand, faqat, texnik o'yinchoqlar bilan o'ynashligi mumkin, qiz bolaga esa: “Buni o'g'il bolalar o'ynaydi. Sen o'zingnikini o'yna” – deb qiziqishlariga e'tiborsizlik bilan qo'g'irchoqlar yokida turli pazandachilik, shifokorlik uskunolari ota-ona tomonidan cheklovlar bilan olib berilishi. Bunday holatlar stereotiplarning boshlangich nuqtasi hisoblanadi. MFY tomonidan ota-onalarga seminarlar tashkil qilib, tushuntirish ishlari olib borilish kerak bo'lganda o'qitib, gender tengligi targ'ibotini yanada oshirish talab etiladi.

Ayollar hissiyotga beriluvchan bo'ladi, erkaklar qattiq qo'l bo'ladi kabi ongiy qarashlar ham stereotiplarning bir ko'rinishidir. Shuningdek, oilada qiz bola birovning hasmi, uy ishi va bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak, erkak uy boshi, boquvchi bo'ladi kabi qarashlar ham shu jumladandir. Gender tenglikni taminlamoqchi ekan, avvalam bor, jamiyatning eng kichik bo'g'ini hisoblanmish oilada shunday muhitni yaratmoqlik darkor. Ta'lim muassasalarida bu borada

⁴⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi

⁴¹ Cardwell, Mike. *Dictionary of psychology*. Chicago Fitzroy Dearborn, 1999. ISBN 978-1579580643.

⁴² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Stereotip>

yoshlarni o'qitish, seminar va maruzalar tashkil qilib, mutaxasislarni jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida mehnat fanidan o'g'il, qiz ajratilgan holda topshiriqlar berilishi ham gender deskirmenatsiyaga sabab bo'layapti. Buning natijasida kasbiy stereotiplar yoshlar ongiga singib qolmoqda. Bularga barham berish uchun darsliklarga gender tengligi mavzularini kiritish va o'qitish metodikalarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

Nemis psixologi, sotsiolog, neofreydizm asoschilaridan biri, gumanistik psixoanaliz vakili Erix Zeligmann Fromm (Erich Seligmann Fromm) "Erkak va ayol" nomli asarida ikki jins vakillarining tabiati va xususiyatlari, gender tengligi muammosini tahlil qilish asnosida quyidagi xulosalarga keladi: "Tenglik o'zlikni anglatadi. Tenglik talabi tabiatan qutblidir: har xil farqlarga qaramay, hech kim bir-birini o'z maqsadiga erishish vositasi sifatida ishlatmasligi kerak, chunki har bir inson o'zi uchun maqsaddir. Va bu shuni anglatadiki, har bir inson o'z turining va millatining vakili sifatida individual xususiyatlarini, o'ziga xosligini rivojlantirish erkinligiga ega bo'lishi kerak. Tenglik farqlarni inkor etishni emas, balki ularni to'liq amalga oshirish imkoniyatini nazarda tutadi.⁴³

Mehnat bozorida erkaklar va ayollar o'rtasidagi sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Jinsiy zo'ravonlik va ekspluatatsiya, haq to'lanmaydigan parvarish va uy ishlarining teng taqsimlanmaganligi, ayrim qarorlarni qabul qilishda kamsitish elementlarining hali ham saqlanib qolayotgani rivojlanish uchun katta to'siq bo'lib qolmoqda. Bunday dolzarb muamolarni bartaraf etish uchun feministik harakatlarni kuchaytirishimiz kerak va bunday harakatlarni jamiyatimizning har bir bo'g'inida targ'ib etsak o'z samarasini ko'rsatadi.

Feministik harakat o'zi nima? Feministik harakatlar xotin-qizlar huquqlari, shu jumladan ovoz berish, davlat lavozimlarini egallash, mehnat qilish, adolatli ish haqi olish va maoshdagi gender tafovutini bartaraf etish, mulkka egalik qilish, ta'lim olish, nikohda teng huquqqa ega bo'lish va onalik ta'tiliga ega bo'lish uchun harakat qiladilar.⁴⁴

Xalq og'zaki ijodida gender tenglikka zid holda qo'llangan maqollar :

- Ayolning farishtasi-ro'zg'orning sarishtasi;
- O'tirgan qiz o'rnini topadi;
- O'g'li borning o'rni bor;
- Qizning ko'rki – nozida;
- Dehqonning sigirini, bevaning qizini olma;
- Erkakni ayollar va yer halok qiladi;
- Erkaklar uyni barpo qiladilar, ayollar o'choqni;

Bunday jamiyat ma'naviyatiga ta'sir qilib, singib qolgan maqollarga o'zgartirishlar kiritish kerak. Masalan:

⁴³ https://uza.uz/oz/posts/gender-tengligi-garb-va-sharq-tamadduni_357083

⁴⁴ Echols, Alice. *Daring to Be Bad: Radical Feminism in America, 1967–1975*. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1989. ISBN 978-0-8166-1787-6.

- Ayolning farishtasi-ilimli, sarishtasi;
- O'qigan qiz o'rnini topadi;
- Qizning ko'rki-bilmida;
- Ilmi borning o'rni bor;

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam gender tengligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri ekan, unga bo'lgan e'tiborni yanada oshirishimiz darkor. Bu borada ma'naviyatimizga singib kelayotgan maqollardan tortib, jamiyatimizni tashkil qilgan har bir bo'g'inda targ'ibot ishlarini olib borishimiz darkor. Shu bilan birga, feministik harakatlarni kuchaytirib, qotib qolgan ba'zi stereotiplarni yo'qotish orqali kutilgan natijaga erishishimiz mumkin. Tashkilotlar va ta'lim muassasalarida targ'ibot ishlarini kuchaytirish, o'zgartirishlar kiritishi va jamiyatning har bir fuqarosini shaxsini hurmat qilib, huquqiy manfaatlarini taminlash nafaqat mamlakatimiz rivoji uchun, balki, mustahkam bir jamiyat hayoti uchun ham poydevor bo'ladi.